



ARAB TILIDA SO'ZLARING O'ZARO BIRIKISHIGA KO'RA TURLARI

Eschanov Usman Qutlimuratovich

Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy nomidagi o'rta maxsus islom bilim
yurti o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Received: 06th Oktober 2023

Accepted: 13th Oktober 2023

Online: 14th Oktober 2023

KEY WORDS

*Tarkib, ma'nosi tugal tarkib,
ma'nosi noqis tarkib, jumla,
xabariy jumla, inshoiy jumla,
ismiy jumla, fe'liy jumla, lafzan.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada arab tilida so'zlarning o'zaro birikishiga ko'ra turlari haqida so'z etildi. Xususan, tarkibning turlari, Jumlaning ifodalagan mazmuniga ko'ra turlari, xabariy va inshoiy jumlaning tuzilishiga ko'ra turlari tavsiflandi.

Ikki yoki undan ortiq kalimaning o'zaro birikishi tarkib (birikish) deyiladi. Xosil bo'lgan birikmaga esa murakkab deyiladi. O'zbek tili grammatikasida esa birikma deyiladi.

Tarkibning olti xil turi mavjud:

1. Isnodiy (رَيْدُ قَائِمٍ)
2. Izofiy (عَبْدُ اللَّهِ)
3. Tavsifiy (رَيْدُ الْعَالَمِ)
4. Ta'dodiy (yoki adadiy) (خَمْسَةَ عَشَرَ)
5. Sovtiy (سَبَبِيَّة)
6. Muzjiy (بُعْدِيَّة)


Ushbu oltita turdagi birikmalarni ma'no anglatishiga ko'ra ikki turga ajratish mumkin.

1. Ma'nosi tugal tarkib (Tom tarkib)
2. Ma'nosi noqis tarkib (Noqis tarkib)

1. Ikki yoki undan ortiq kalima o'zaro birikgan paytda to'liq (tugal) ma'no anglatsa, bunday tarkib ma'nosi tugal tarkib (tom tarkib) deyiladi. Bu turdagi tarkib kalom yoki jumla deb nomlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan tarkiblardan isnodiy tarkib shu toifaga kiradi. Isnodiy tarkib o'zbek tilida ega-kesim munosabatli birikma deyiladi.

2. Buning aksi bo'lsa, ya'ni ikki yoki undan ortiq kalima o'zaro birikgan paytda tugal ma'no anglatmasa, bunday tarkib ma'nosi noqis tarkib (noqis tarkib) deyiladi.

Eslatma: Ma'nosi tugal tarkib fikr yoki hukmni ifodalaydi, ma'nosi noqis birikma esa tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi.



Jumla (Kalom). Jumla ifodalagan mazmuniga ko'ra (ifoda maqsadiga ko'ra) ikki qismga bo'linadi:

1. Xabariy jumla
2. Inshoiy jumla

1. Biron narsa haqida rost bo'ladimi yoki yolg'on bo'ladimi biron xabarni bildirgan jumla xabariy jumla deyiladi. O'zbek tilida esa darak gap deyiladi.

2. Biron narsa haqidagi xabarni emas, balki tinglovchidan biron narsa istalayotganligini bildirgan jumla inshoiy jumla deyiladi. Bunday turdagi jumlar ko'pincha buyruq, istak, so'roq, murojaat, hayrat kabima'nolarni ifodalaydi.

Xabariy jumla. Yuqorida aytganimizdek, biron narsa haqida rost bo'ladimi yoki yolg'on bo'ladimi biron xabarni bildirgan jumla xabariy jumla deyiladi.

Eslatma: Bir jumlada eng kamida ikkita kalima ishtirok etadi. Bu ikki kalimaning har ikkisi ham ism bo'lishi mumkin. Masalan:

[مَحْمُودٌ مُّجْتَهِدٌ]

Biri fe'l, ikkinchisi ism bo'lishi ham mumkin. Masalan:

[جَاءَ زَيْدٌ]

Ammo ikkita fe'lning birikishidan yoki ikkita harfning birikishidan jumla yasab bo'lmaydi.

Xabariy jumla tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ldi:

1. Ismiy jumla
2. Fe'liy jumla

1. Ism bilan boshlangan jumla ismiy jumla deyiladi. Ismiy jumlaning birinchi qismi "musnad ilayh" bo'ladi va u muftado deb nomlanadi. Ikkinchi qismi "musnad" bo'ladi va u xabar deyiladi.

2. Fe'l bilan boshlangan jumla fe'liy jumla deyiladi. Fe'liy jumlaning dastlabki qismi musnad bo'ladi va u fe'l deb nomlanadi. Ikkinchi qismi esa musnad ilayh bo'ladi va u foil deyiladi.

Keling bu qoida ichidagi atamalarni o'rganib chiqamiz:

- 1) Musnad – biron shaxs yoki narsa haqida aytilgan xabar (O'zbek tilida kesim deyiladi)
- 2) Musnad ilayh – aytilgan xabar kim yoki nima haqida ekanligini bildirgan so'z. (O'zbek tilida ega deyiladi).

Masalan: جَاءَ زَيْدٌ (Zayd keldi.)

جَاءَ (keldi) – Zayd haqida aytilgan xabar. (kesim)



زَيْد (Zayd) – Xabar kim haqida ekanligini bildirgan soʻz. (ega)

3) Muftado – oʻzbek tilida ot kesimli gap egasi

4) Xabar – oʻzbek tilida ot kesim

5) Feʼl – oʻzbek tilida feʼl kesim

6) Foil – oʻzbek tilida feʼl kesimli gap egasi

Ism – musnad ham, musnad ilayh ham boʻlib kelishi mumkin.

Feʼl – faqat musnad boʻlib keladi, musnad ilayh boʻlib kela olmaydi.

Harf – musnad ham, musnad ilayh ham boʻlib kela olmaydi.

Inshoiy jumla. Biron narsa haqidagi xabarni emas, balki tinglovchidan biron narsa istalayotganligi, umid qilinayotganligini bildirgan jumla inshoiy jumla deyiladi. Bunday turdagi jumlar koʻpincha buyruq, istak, soʻroq, murojaat, hayrat kabi maʼnolarni ifodalaydi. Shunga koʻra inshoi jumlaning bir qancha turlari mavjud, ular quyidagilar:

1. Amr (Buyruq gap)

2. Nahiy (Taqiq, inkor buyruq gap)

3. Istifhom (Soʻroq gap)

4. Tamanniy (Istak maʼnosini bildirgan gap)

5. Tarojiiy (Umid maʼnosini bildirgan gap)

6. Aqd bogʻlash (Oʻzaro kelishuv maʼnosini bildirgan gaplar)

7. Nido (Undov gap)

8. Arz (Taklif maʼnosini bildirgan gap)


9. Qasam (Qasam ichish maʼnolarini bildirgan gap)

10. Taʼajjub (Hayratlanishni ifodalagan gaplar, oʻzbek tilida – his-hayajon gaplar)

Jumla kamida ikki kalimadan tashkil topgan boʻladi. Uning ikki kalimadan tashkil topishi lafzan boʻladi yoki taqdiran boʻladi. Lafzan deganimiz gapni tashkil qilgan barcha soʻzlar gapdan koʻrinib turgan boʻladi. Taqdiran boʻlganda esa, gapni tashkil qilgan baʼzi kalimalar tushirib qoldirilgan boʻladi, biz ularni gap maʼnosidan anglab olamiz. Masalan:

Jumla ikki kalimadan koʻproq lafzlardan tashkil topishi ham mumkin. Bunda jumlaning tashkil qilgan kalimalarning chegaralangan soni yoʻq.

Jumlaning kalimalari ism, feʼl va harfdan iborat boʻladi. Aziz oʻquvchi arab tilida gaplarni toʻgʻri oʻqish uchun jumlaning koʻrgan paytda uning kalimalarini ism, feʼl va harfga ajrating va qay biri moʻrob, qay birimabniy ekaniga, qay biri omil, qay biri maʼmul ekaniga eʼtibor qarating. Musnad va musnadi ilayh orasini farqlay olishingiz uchun kalimalarning bir-biriga bogʻalish kayfiyatlarini yaxshi bilish va jumlaning maʼnosini tahqiq ila bilish juda ham muhimdir.



References:

1. Hifni Nosif, Muhammad Dayob, Mustafo Tamum, Muhammad Solih "ad-Durusun-nahviyya" 1-2-3-4. 2006.
2. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.
3. Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М. 1998. Предислова.
4. Холидов Б.З. Учебник арабского языка. М. 1981.
5. Шарбатов Г. Ш. Современный арабский язык. М.1961.